

## FINLYANDIYADA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMI

*Niyozova Guli*

*Samarqand shahar 42-maktab Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim sohasida ilg’or xorijiy davlatlardan biri Finlyandiya boshlang‘ich ta’lim tizimi haqida ma’lumot berilgan. Finlyandiya o’quvchilari matematika va tabiiy fanlardan yuqori natijalarni qayd etayotganligi ta’kidlangan.

**Kalit so’zlar:** Finlyandiya, boshlang‘ich ta’lim, kelishuvchanlik, intiluvchanlik

**Annotation:** This article provides information about the primary education system of Finland, one of the advanced foreign countries in the field of education. It is noted that Finnish students record high results in mathematics and natural sciences.

**Key words:** Finland, primary education, agreeableness, aspiration

**Аннотация:** В статье представлена информация о системе начального образования Финляндии, одной из передовых зарубежных стран в области образования. Отмечается, что финские школьники показывают высокие результаты по математике и естественным наукам.

**Ключевые слова:** Финляндия, начальное образование, доброжелательность, стремление.

### KIRISH

Ma`lumki, so’nggi paytlarda Finlyandiyadagi ta`lim tizimi dunyodagi eng yaxshi tizim ekanligi va mazkur tizimning bunday maqomga erishishda yordam beradigan radikal g’oyalar qanday ishlayotgani haqida fikrlar matbuotda keng muhokama qilinmoqda. Bizning Milliy ta’lim tizimimiz ham bundan mustasno emas. Finlyandiya maktablarida ta’lim tizimi yuqori darajada rivojlangan va katta yutuqlarga erishgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hech kimga sir emaski bugungi kunda Finlyandiya maktablarida matematika o’qitish metodikasi eng yuqori darajada bo‘lib, shulardan bitta oddiy misol keltiradigan

bo‘lsak, Finlyandiyada fandan yuqori va past o’zlashtiruvchi o’quvchilar bir biriga yordamchi yoki o‘quvchi bir biriga ustoz metodi yanayam aniqroq aytadigan bo‘lsak juft yoki toq metodida o‘qitish ham ommalashgandir. Juft metodi bu yuqori va past o’zlashtiruvchi ikkita o‘quvchiga dars o’tiladi va past o’zlashtiruvchi o‘quvchi tushunmagan qismini o‘quvchining tushunishi oson bo’lgan atamalari bilan yuqori o‘zlashtiruvchi o‘quvchi past o’zlashtiruvchi o‘quvchiga tushuntiradi. Toq usul esa past o’zlashtiruvchi o‘quvchi bilan fan o‘qituvchisi shug‘ullanadi, undan keyin matabning to‘garak o‘tuvchi o‘qituvchisi shug‘ullanadi va oxirgi bosqichda esa past o’zlashtiruvchi o‘quvchining ota onasi shug‘ullanib boshqa sinfdagi tez o’zlashtiruvchi o‘quvchilarga yetib olishlariga yordam berishadi. Bu ikkita metodning afzalliklari o‘z samarasini bermoqda. Amalga oshirilgan islohotlar tez orada o‘zining ijobiy natijasini berdi. 2001-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti dunyoning turli mamlakatlarida 15 yoshli o‘quvchilar ishtirok etgan birinchi xalqaro tadqiqot natijalarini e’lon qildi. Bilimni baholash xalqaro tadqiqot dasturi(PISA) testlari asosida fin o‘quvchilarining ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o’zlashtirish darajasi aniqlandi. Ushbu fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki ularni amaliyotda qo’llay olish ko’nikma va malakalari ham baholandi. Bunda Finlyandiya 31ta mamlakatni orta qoldirib, yuqori natijalarni ko’rsatdi. Boshlang’ich ta’lim muammolariga bag’ishlangan ilmiy adabiyotlarni va internet manbalarini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, bugungi kunda Finlyandiya davlatining mazkur sohada erishgan yutuqlari g’oyatda maqtovga sazovor. Uning tajribasidan ko’pchilik chet el davlatlari, jumladan, AQSH, Fransiya, Germaniya, Shvedsiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimini isloh qilishda samarali foydalani kelmoqdalar va kutilgan natijalarga erishmoqdalar. Finlyandiya ta’lim tizimiga chuqurroq nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning bir qator o‘ziga xos afzalliklari namoyon bo’ladi. Finlyandiyada ta’lim - hamma uchun teng imkoniyatlarni ta’minalash deganidir. Tenglik tushunchasi juda qadrlanib, barcha o‘quvchilar bilim va qobiliyatlaridan qat’iy nazar, bir xil sinflarda o’qiydi. Ta’lim olish imkoniyatlarini teng ravishda taqdim etish bilan birga, professional o‘qituvchilar dars beradi. Finlyandiya universitetlaridagi ta’lim fakultetlarining ustunvor vazifasi “o’zini o’zi boshqaruvchi o‘qituvchilar”ni tayyorlashdan iborat. Ta’lim fakultetiga

talabalarning bilimiga qarab tanlanmaydi. Bizning ta’lim tizimizdan farqli o’laroq, bir necha bosqichli tanlovdan so’ng, kelishuvchanlik, bolalarni tushuna olish, mehnatsevarlik, intiluvchanlik kabi hislatlarga ega bo’lgan nomzodlar tanlab olinadi. Har yil o’qituvchi lavozimida ishlash uchun istak bildirgan 8500 nomzoddan atigi 800 nafari tanlab olinadi. O’qituvchilarining yuqori darajadagi bilimlari bolalar rivojlanishining barcha bosqichlarini kuzatib borish va yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarning oqilona yechimlarini topish uchun eng muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. Finlyandiyada o’qituvchilar har bir o’quvchining o’zlashtirishiga qarab o’quv dastur va darsliklarni o’zgartirishlari ham mumkin. O’quvchilarining har biriga individuval e’tibor qaratilishi natijasida, darsga qiziqish va yaxshi o’zlashtirishga erishiladi. Maktab o’quvchilari uchun darslik, yozuv daftarlari, o’quv qurollari har yili bepul taqdim etiladi. Asosiy ta’limni fin o’quvchilar 9 yil davomida olishadi va ularning 60 foizi o’qishini oliy ta’lim muassasalarida davom ettiradi. O’zbekiston bilan taqqoslaydigan bo’lsak, hozirgi kunda maktab bitiruvchilarining 33 foizigina o’qishni oliy ta’lim muassasalarida davom ettirmoqda. Yuqoridagi tahlildan ko’rinib turibdiki, Finlandiya boshlang’ich ta’lim tizimi bolalarni erkin fikrlash, stress holatlarini yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish, o’quvchilarga individual yondashish, mas’uliyatlilik hissini singdirib borish, bolalar uchun qulay bo’lgan fiziologik sharoitlarni va psixologik muhitni yaratish, o’qituvchilarining yuqori darajadagi professional kompetensiyasini ta’minlashga qaratilgan. Shubhasiz, bular ta’lim samaradorligini oshirishga ijobjiy ta’sir ko’rsatadi va o’quvchilarni o’qishga bo’lgan intilishlarini kuchaytiradi, hamda mazkur ta’lim tizimining yuqori samaradorligini ko’rsatadi. Shuni alohida ta’kidlab o’tish kerakki, boshlang’ich sinflarda puxta olingan ta’lim o’rta va yuqori sinflarda hamda keyinchalik oliy ta’lmi muassasalarida olinadigan bilimlar uchun mustahkam poydevor vazifasini o’taydi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, kelajagimiz bo’lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo’lib yetishishida ta’lim muhim o’rin egallaydi. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim tizimi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Chunki uzluksiz ta’lim tizimini keyingi bosqichlarining natijasi va samaradorligi boshlang’ich ta’lim jarayonida olingan bilim

va shakllangan ko'nikmalarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim tizimini bu sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, innovatsion g'oyalarni va ilg'or chet el tajribasini tadbiq etish orqali jiddiy yondashgan holda isloh qilish talab etiladi. Shubhasiz, bu sa'y-harakatlar yaqin keljakda o'z natijasini beradi va jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Grigoriy Petrov. "Oq nilufarlar yurtida", "Faktor press", 2021 y.
2. Timoti Uoker. "Finlandiya ta'lim mo'jizasi", "Global books", 2023 y.
3. Salberg Pasi. "Финские уроки. История успеха реформ школьного образования в Финляндии", "Арт-транзит, классика- XXI", 2015 г.

### **Internet manbalar:**

- 1.<https://abt.uz/blog/prezident-xalq-ta-limi-tizimidagi-muammolar-va-kamchiliklarni-ma-lum-qildi?ysclid=ldcwdyyo3z362322428>
- 2.<https://uz.sputniknews.ru/20221104/v-uzbekskix-shkolax-testiruyut-uchebniki-na-osnove-finskoy-sistemy-obrazovaniya-29718687.html?ysclid=ldeii9tdw121252533>
3. [https://www.instagram.com/p/CjdnC\\_uNHbb/?igshid=YmMyMTA2M2Y=](https://www.instagram.com/p/CjdnC_uNHbb/?igshid=YmMyMTA2M2Y=)